

**“UzAuto Motors Powertrain” AJning ustav kapitalidagi
100% aksiyalar paketiga egalik qiluvchi yagona aksiyadori
“UzAuto Passenger Vehicles Management” MChJning,
aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining vakolatiga kiradigan masalalar bo‘yicha
53-2025/5-sonli qarori**

Toshkent sh.
A.Temur ko‘chasi, 13-uy

2025-yil 22-may
soat: 11:00

“UzAuto Motors Powertrain” aksiyadorlik jamiyatining (keyingi o‘rinlarda – Jamiyat) 2025-yil 20-may holatiga depo hisobvarag‘i ko‘chirmasiga asosan, Jamiyatning 139 837 000 000 dona, ya‘ni 100% aksiyalar paketi “UzAuto Passenger Vehicles Management” MChJga tegishli.

“Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 58-moddasiga ko‘ra barcha oddiy aksiyalar bitta aksiyadorga tegishli bo‘lgan jamiyatda aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi o‘tkazilmaydi. Ushbu Qonun va Jamiyatning Ustavi bilan aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi vakolatiga kiritilgan masalalar bo‘yicha qarorlar bunday aksiyador tomonidan yakka tartibda qabul qilinadi hamda yozma shaklda rasmiylashtiriladi.

Ushbu Qaror 2025-yil 22 -may kuni O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Jamiyat Ustaviga muvofiq yozma shaklda rasmiylashtirildi.

1. Jamiyat Kuzatuv kengashi a‘zolari vakolatlarini muddatidan oldin tugatish to‘g‘risida.

Yagona aksiyadorning 2025-yil 7-maydagi 0028-sonli xatiga muvofiq, Jamiyat Kuzatuv kengashi a‘zolari sonini 5 nafardan 3 nafarga qisqartirish, shu sababli Jamiyat ustavi va lokal hujjatlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish yuzasidan topshirig‘i kelib tushgan. Mazkur ijrosini ta‘minlash maqsadida, Jamiyatning amaldagi Kuzatuv kengashi a‘zolari vakolatlarini muddatidan avval tugatish zarurligini inobatga olib,

Qaror qiladi (139 837 000 000 ovoz, 100%):

1. Quyidagi Jamiyat Kuzatuv kengashi a‘zolarining vakolatlari muddatidan oldin tugatilsin:

- 1.1. Xidoyatov Davron Abdulpattaxovich;
- 1.2. Turayev Farxod Razakovich;
- 1.3. Axunov Baxrom Baxtiyorovich;
- 1.4. Akilov Xondamir Nurullaevich;
- 1.5. Alimov Navruzjon Raimovich.

2. Jamiyat Kuzatuv kengashi a‘zolari sonini 5 nafardan 3 nafarga qisqartirish to‘g‘risida.

Yagona aksiyadorning 2025-yil 7-maydagi 0028-sonli ko‘rsatmasiga muvofiq, Jamiyat Kuzatuv kengashi a‘zolari sonini 5 nafardan 3 nafarga qisqartirish topshirig‘i ijrosini ta‘minlash maqsadida,

Qaror qiladi (139 837 000 000 ovoz, 100%):

2. Jamiyat Kuzatuv kengashi a‘zolari soni 5 nafardan 3 nafarga qisqartirilsin.

3. Jamiyatning yangi tahrirdagi ustavini tasdiqlash to‘g‘risida.

Yagona aksiyadorning 2025-yil 7-maydagi 0028-sonli ko‘rsatmasidagi topshiriqlarning ijrosini ta‘minlash maqsadida, Jamiyat ustaviga tegishli o‘zgartirishlar kiritish zaruratini inobatga olib,

Qaror qiladi (kumulyativ ovoz berish orqali 139 837 000 000 ovoz, 100%):

- 3.1. Jamiyatning yangi tahrirdagi ustavi ushbu qaror 1-ilovasiga muvofiq tasdiqlansin;
- 3.2. Jamiyatning yangi tahrirdagi ustavini qonunchilikka muvofiq davlat ro'yxatidan o'tkazilishini ta'minlash Jamiyat Bosh direktori v.v.b. S.M.Gulyamovga yuklatilsin.

4. Jamiyat Kuzatuv kengashiga yangi a'zolari saylash to'g'risida.

Yagona aksiyadorning 2025-yil 7-maydagi 0028-sonli ko'rsatmasidagi Jamiyat Kuzatuv Kengashi a'zolari sonini 5 nafardan 3 nafarga qisqartirish topshirilib, ko'rsatmaning ilovasida Jamiyat Kuzatuv Kengashi a'zolariga nomzodlar taqdim etilgan. Yuqoridagilarni inobatga olib,

Qaror qiladi (kumulyativ ovoz berish orqali):

4. Quyidagilar Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolariga uch yil muddatga saylansin:
 - 4.1. Axunov Bahrom Baxtiyorovich - "UzAuto PV" MChJ Bosh direktori (139 837 000 000 ovoz, 100%);
 - 4.2. Tagayev Ilxomjon Sobirjanovich - "UzAuto PV" MChJ Bosh direktori maslahatchisi (139 837 000 000 ovoz, 100%);
 - 4.3. Qosimov Umidjon Sodikovich - "UzAuto PV" MChJ korporativ va mulkiy munosabatlar bo'yicha bosh mutaxassis (139 837 000 000 ovoz, 100%).

5. Jamiyatning yangi tahrirdagi "Kuzatuv kengashi to'g'risida"gi Nizomini tasdiqlash to'g'risida.

Yagona aksiyadorning 2025-yil 7-maydagi 0028-sonli ko'rsatmasidagi topshiriq yuzasidan Jamiyat lokal hujjatlarini Jamiyatning yangi tahrirdagi ustaviga muvofiqlashtirish maqsadida,

Qaror qiladi (kumulyativ ovoz berish orqali 139 837 000 000 ovoz, 100%):

5. Jamiyatning yangi tahrirdagi "Kuzatuv kengashi to'g'risida"gi Nizomi ushbu qarorning 2-ilovasiga muvofiq tasdiqlansin.

Ushbu qaror 2025-yil 22 -may kuni imzolandi.

**"UzAuto Passenger Vehicles
Management" MChJ nomidan
Bosh direktor**


B.B.Axunov